

## **DAVLAT BYUDJETIGA SOLIQLAR TUSHUMI BARQARORLIGINI TA'MINLASH SIYOSATIDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI MARKAZLASHTIRISHNING IJOBIY TOMONLARI**

*Ismatov Xolbuta Begmatovich*

*Toshkent davlat iqtisodiyot*

*universitetining mustaqil tadqiqotchisi*

**Annotasiya.** Mazkur maqolada respublikamizda yangi taraqqiyot strategiyasida soliq-byudjet tizimini samaradorligini ta'minlash masalasi yoritilgan. Har qaysi mamlakatning iqtisodiy siyosatida soliq siyosati o'ta muhim aamiyatga ega. Soliq siyosati davlatning boshqa iqtisodiy siyosatining yo'nalishlariga kuchli uzviy bog'liqligi bilan bir qatorda, ularga ta'sir qilib boradi. Soliq siyosatini to'g'ri ishlab chiqish va uning strategik hamda taktik yo'nalishlarini belgilab olish o'ta dolzarb va murakkab jarayon hisoblanadi. Mazkur maqolada soliq siyosatining mazmuni, uning strategiyasi va taktikasi hamda bugungi kunda O'zbekiston soliq siyosatining ustuvor yo'nalishlari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** soliq, soliq munosatlari, iqtisodiy siyosat, soliq siyosati, soliq siyosati strategiyasi, soliq siyosati taktikasi, soliq stavkasi, soliq imtiyozlari, soliq siyosati yo'nalishlari, davlat byudjeti, markazlashtirilgan pul fondlari, soliq ma'murchiligi, soliq yuki.

**Kirish.** Davlatning ichki moliyaviy siyosatining mazmunida markazlashgan pul fondlarini shakllantirish va ularni taqsimlash bilan munosabatlar asosiy rol o'ynaydi. Bu esa, davlatning iqtisodiy siyosatining eng muhim tarkibiy qismi bo'lgan soliq siyosati bilan bog'liqdir. Soliq siyosati davlatning boshqa iqtisodiy siyosatining yo'nalishlariga kuchli uzviy bog'liqligi bilan bir qatorda, ularga ta'sir qilib boradi. Soliq siyosatini to'g'ri ishlab chiqish va uning strategik hamda taktik yo'nalishlarini

belgilab olish o'ta dolzarb va murakkab jarayon hisoblanadi. Shu jihatdan olganda soliq siyosatini ishlab chiqish, uni amalga oshirish va uning samaradorligi baholash o'ziga xos murakkab jarayon bo'lib, uning yo'nalishlarini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq qilish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Zamonaviy soliq ma'muriyatchiligiga o'tish yo'lidagi islohotlar doirasida Xalqaro valyuta fondi ekspertlari takliflarini inobatga olgan holda, Davlat soliq qo'mitasi tuzilmasida yirik soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish, jumladan soliq hisobotlarini qabul qilish, soliq nazoratini amalga oshirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish majburiyati yuklatilgan **Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi tashkil etildi** (PQ-3802, 26.06.2018 y.). *Yuridik shaxslarni yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritish mezonlari belgilanadi (AV-3172-son Nizom, 12.07.2019 y.): a) aksiz solig'iga tortiladigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar; b) tijorat banklari hamda ularning filiallari, tovar-xomashyo, fond va valyuta birjalari; d) «Navoiy KMK» DK, «Olmaliq KMK» AJ hamda ularning tarkibiga kiruvchi tashkilotlar; e) mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha ishlarni bajarishda ishtirok yetayotgan tashkilotlar; f) o'tgan kalendar yil yakuni bo'yicha mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan olingan sof tushumi 100,0 milliard so'mdan yuqori bo'lgan yuridik shaxslar.* Inspeksiya tomonidan 2020 yilda **67,7 trln.so'm** (jami tushumlarning 65%), 2021 yilda **82,3 trln.so'm** (64%), 2022 yil yanvar-oktyabr oylarida **75,5 mlrd.so'm** (61%) soliq tushumlari ta'minlandi. Soliq to'lovchilarga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilash hamda qo'shilgan qiymat solig'i ma'murchiligini markazlashtirish maqsadida **QQS to'lovchi korxonalar soliq ma'murchiligi hududiy soliq boshqarmalariga markazlashtirildi**. Bu o'z navbatida QQS va foyda soliqlari ma'murchiligini hamda soliq to'lovchilar bilan ishlashni soddalashtirish bilan birga, 2021 yilda **24,1 trln.so'm** (jami tushumlarning 19%), 2022 yil yanvar-oktyabr oylarida **28,1 trln.so'm** (23%) kafolatlanishiga imkon berdi.

Shuningdek, QQS bo'yicha manfiy farq qaytarilishi bo'yicha arizalar ko'rib chiqilishi tezlashib, joriy yil 9 oyligida **4 833 ta** korxonaning **8 424 ta** arizalari bo'yicha **12,8 trln.so'm** soliq to'lovchilar ixtiyoriga qaytarildi (2021 yil mos davrida - 10,4 trln, 2020 yil mos davrida - 4,5 trln.so 'm qaytarilgan). Soliq organlari sonini qisqartirish keng tarqalgan amaliyot bo'lib, ko'plab rivojlangan mamlakatlarda ijobiy natijalar bergan. **Italiyada** 2014-15 yillarda inspeksiya 213 tadan 114 taga qisqartirilgan, **Belgiyada** 257 tadan 214 taga va **Bolgariyada** 2006-2010 yillarda inspeksiya soni 300 tadan 28 taga qisqartirilgan.

<b>Bolgariya: soliq islohotlarigacha va undan keyingi holat</b>	
2006 yilda	2010 yilda
<b>I. Ijtimoiy ta'minot milliy instituti markaziy apparati</b>	<b>I. Ijtimoiy ta'minot milliy instituti markaziy apparati</b>
<i>28 ta hududiy boshqarmalar</i>	<i>28 ta hududiy boshqarmalar</i>
<b>II. Soliq organlari</b>	<b>II. Daromadlar milliy agentligi</b>
<i>Yig'ma soliq boshqarmasi</i>	<i>Markaziy apparat</i>
<i>29 ta hududiy boshqarma</i>	<i>Murojaatlar va sifat nazorati bo'yicha 5 ta boshqarma</i>
<i>5 ta mahalliy boshqarmalar</i>	<i>28 ta hududiy boshqarmalar</i>
<i>112 ta inspeksiya</i>	<i>1 ta yirik soliq to'lovchilar bo'yicha boshqarma</i>
<i>167 ta soliq byurolari</i>	<i>1 ta o'rta soliq to'lovchilar bo'yicha boshqarma</i>

Bunday ijobiy tajribalarga asoslangan holda kelgusida soliq qarzini majburiy undirishga qaratish, soliq tekshiruvlarini amalga oshirish bo'yicha alohida inspeksiya tashkil etish hamda eksteritorial ravishda xizmat ko'rsatishga o'tish orqali bosqichma-bosqich tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyalari sonini

optimallashtirish masalalarini respublikamizda ham ko'rib chiqish shart-sharoitlari yuzaga kelmoqda.

Xulosa va takliflar.

Davlat soliq xizmati organlari faoliyati natijalari bilan soliq bazasining kengayishi, to'lov intizomining mustahkamlanishi, soliq to'lovi madaniyatining shakllanishi va tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tadbirlarning natijadorligi bo'yicha keng jamoatchilik bilan ochiq muloqatlarning yangi bosqichiga chiqarish, xususan, soliq organlarining maxsus Axborot tahliliy portalini ([tahlil.soliq.uz](http://tahlil.soliq.uz)) ishga tushirish; Unda har bir soliq turi va hududlar bo'yicha soliq tushumlari, soliq to'lovchilarning soni, asosiy soliq stavkalari, yangi ochilgan yuridik shaxslar soni, soliq majburiyatini ixtiyoriy bajarish darajasi, QQS manfiy summalarini qoplab berilishi, QQS zanjiri uzilishi koeffitsienti, soliq yuki, topshirilgan hisobotlar bo'yicha o'rtacha ish haqi miqdori, tadbirkorlik sub'ektlarining foydasi, jamoatchilik nazorati ko'rsatkichlari, onlayn NKM cheklari summasi, elektron hisobvara-q-fakturalari aylanmasi dinamikasi, murojaatlarning ko'rib chiqilishi kabi ma'lumotlar ekspertlar, tahlilchilar va keng jamoatchilik foydalanishi nazarda tutilishi zarur.

#### **Adabiyotlar/Literatura/Reference:**

Normurzaev U. (2021). Puti effektivnogo ispolzovaniya nalogovyx lgot dlya podderjki predprinimateley. *Ekonomika i innovatsionnye texnologii*, (4), 355–362. izvlecheno ot [https://inlibrary.uz/index.php/economics\\_and\\_innovative/article/view/11954](https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/11954)

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.

Prozorova, M. N., Zharkov, A. D., Zharkova, A. A., Khamdamova, V. A., Sattorova, S. O., & Losev, V. S. (2021). University graduate career potential in digital transformation period: Features and problems of formation. *Linguistics and Culture Review*, 5(S3), 1574-1585